Xulosa. Boshlang‘ich sport ixtisosligi bosqichida keng ko‘lamdagi harakatli o‘yinlar, o‘yin mashqlarini qo‘llashdan tashqari, asosiy jismoniy tayyorgarlik mashq1ari komplekslaridan foydalanish mumkin. Ko‘proq chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni darsning asosiy qismi boshlarida qo‘llash kerak, shundan so‘ng bu sifatni takomillashtirishga yordam beruvchi o‘yinlardan foydalanish lozim. Chaqqonlikni talab qiluvchi tegishli o‘yinlar va o‘yin mashqlari kompleksiga, shuningdek, murakkab harakatlarni yengishni talab etadigan o‘yinlar komplekslariga ancha kam vaqt ajratiladi. Ular, asosan, darsning o‘rtasida va oxirida o‘tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кошбахтиев И.А. Эффективность атакующих действий в современном футболе. В кн.: «Некоторые вопросы физического воспитания и развития спорта среди школьников и молодежи». Т., 1975.

(2). Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2005.

(3).Сарсания С.К., Селуян В.Н. Физическая подготовка в спортивных играх. М., 1991.

(4). Futbol. Darslik. R.A. Akramovning umumiy tahriri ostida, Toshkent, O‘zDJTI nashriyoti, 2006.

(5). Futbol. Darslik. R.A. Akramovning umumiy tahriri ostida, Toshkent, O‘zDJTI nashriyoti, 2006.

Ummatkulova Charos Alijon qizi (Samarqand davlat Chet tillar instituti tayanch doktoranti; charosalijonovna@gmail.com)

CHET TILINI O‘QITISHDA TALABALAR OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY USULLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya*. Ushbu tadqiqot chet tilini o‘qitishda interaktiv metodlar va podkastlardan foydalanish samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlari solishtirilib, innovatsion yondashuvlarning gapirish va tinglash ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, interaktivlik, experimental metod, taqqoslash, tajriba, samaradorlik, farq, rivojlanish.*

РАЗВИТИЕ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ: СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *Исследование анализирует эффективность интерактивных методов и подкастов в обучении иностранному языку. Экспериментальная группа достигла 25–30% прогресса, тогда как традиционные методы обеспечили лишь 8–10% роста. Результаты подтверждают пользу современных технологий в изучении языка.*

Ключевые слова*: инновация, интерактивность, навык, барьер, сравнение, эксперимент, эффективность, отличие, развитие.*

DEVELOPMENT OF STUDENTS’ ORAL SPEAKING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: MODERN METHODS AND INNOVATIVE APPROACHES

Annotation. *This study examines the effectiveness of interactive methods and podcasts in foreign language teaching. Students using interactive methods improved by 25–30%, while traditional methods led to only 8–10% growth, confirming the benefits of modern teaching technologies.*

Keywords: *innovation, interactivity, skill, barrier, comparison, experiment, effectiveness, difference, development.*

Kirish. Chet tilini o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutib, tinglab tushunish va so‘zlashish asosiy ko‘nikmalar sifatida ahamiyat kasb etadi. Tinglab tushunish til o‘rganuvchilarga real til muhitida ma’lumotlarni anglashga yordam bersa, yuqori darajadagi so‘zlashish ko‘nikmasi fikrlarni aniq ifodalash imkonini beradi. Biroq psixologik to‘siqlar, lingvistik kompetensiya yetishmovchiligi va tabiiy til muhitining cheklanganligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun interaktiv o‘qitish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash zarur. Tadqiqotning maqsadi til o‘rgatish jarayonini takomillashtirish uchun innovatsion usullarni taklif qilishdir.

Metodologiya (Methods of the Research). Ushbu tadqiqotda talabalar og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda duch keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini taklif qilish maqsadida turli tadqiqot uslublari qo‘llanildi. Tadqiqotning ishonchliligi va samaradorligini ta’minlash uchun sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: anketaviy so‘rov orqali talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanib, ularning fikrlari o‘rganildi; eksperiment yordamida interaktiv metodlar va texnologiyalarning samaradorligi baholandi, tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi; intervyu va kuzatuv orqali o‘qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar olib borilib, og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi muammolar va samarali yondashuvlar o‘rganildi; ta’lim texnologiyalari tahlili esa zamonaviy interaktiv usullar va texnologiyalarni o‘rganib, ularning

chet tilini o‘qitish jarayoniga ta’siri baholandi. Ma’lumotlar Samarqand davlat Chet tillar institutining quyi bosqichida tahsil olayotgan 120 nafar talaba orasida yig‘ildi. So‘rovnomalar anonim tarzda o‘tkazilib, ishtirokchilarning fikrlari tahlil qilindi. Eksperiment davomida interaktiv o‘qitish metodlari qo‘llangan guruh va an’anaviy usulda ta’lim olgan guruh natijalari taqqoslandi. Eksperiment ikki oy davomida o‘tkazilib, unda talabalar ikki guruhga ajratildi:

Tajriba-sinov guruhi (jami 60 ta talaba) – zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar asosida ta’lim oldi.

Nazorat guruhi (jami 60 ta talaba) – an’anaviy usullar asosida o‘qitildi.

Natijalar (Results). Quyida 120 nafar talabadan olingan so‘rovnomaning natijalari taqdim etiladi:

#	Savol	A	%	B	%	C	%	D	%	E	%
1	Gapirishning eng qiyin jihati	Lug‘at boyligini oshirish	25 %	Talaffuz va tovushlarni to‘g‘ri aytish	20 %	Fikrlarni man-tiqiy tuzish	18 %	Grammatikani to‘g‘ri qo‘llash	22 %	Muhim argumentlar keltirish	15 %
2	Gapirishni rejalashtirish darajasi	Kamdan kam	20 %	Ko‘pincha	25 %	Har doim	10 %	Ba’zida	30 %	Hech qachon	15 %
3	Gapirishga tayyorgarlikdagi eng qiyin bosqich	Fikrlarni tartibga solish	22 %	Nutq mazmunini yodlash	18 %	Nutqni ishonch bilan aytish	20 %	Yangi g‘oyalar ishlab chiqish	25 %	To‘g‘ri so‘zlarni tanlash	15 %
4	Nutq so‘zlashdagi eng katta xavotir	Fikrlarni aniq ifoda eta olmaslik	30 %	Zarur uzunlikka yetkazolmaslik	15 %	Vaqt yetishmovchiligi	12 %	Ko‘p grammatik xatólar qilish	20 %	Nutqni qanday boshlashni bilmaslik	23 %
5	Fikr-mulohazaga munosabat	Neytral	15 %	Biroz foydali	20 %	Juda qulay	25 %	Umuman yoqtirmayman	10 %	Ba’zida noqulay	30 %
6	Gapirishni yaxshilashning eng samarali usuli	O‘qituvchi fikr-mulohazasi	30 %	Peer bahs-munozara	20 %	O‘z nutqini qayta eshitish	15 %	Podcast va onlayn materiallar	18 %	Muvaffaqiyatli nutqlarni o‘rganish	17 %
7	Nutqni qayta ko‘rib chiqish chastotasi	Kamdan kam	20 %	Har doim	10 %	Ko‘pincha	25 %	Hech qachon	15 %	Ba’zida	30 %
8	Eng qiyin nutq turi	Ko‘rgazmali nutq	20 %	Ishontiruvchi nutq	30 %	Ko‘ngilochar nutq	18 %	Axborot nutqi	15 %	Marosim nutqi	17 %
9	Tinglashni yaxshilashning eng yaxshi usuli	Mashqlarni muntazam bajarish	25 %	Lug‘at boyligini oshirish	15 %	Turli lahjalarni tinglash	20 %	Ingliz tilidagi seriallarni ko‘rish	30 %	Grammatikani yaxshiroq tushunish	10 %
10	Tinglashga ishonch darajasi	Kamdan kam	18 %	Ba’zida	30 %	Har doim	12 %	Hech qachon	10 %	Ko‘pincha	30 %
11	Tinglash testidagi eng qiyin qism	Trekning boshlanishi	20 %	Mazmunni to‘g‘ri bayon qilish	18 %	Javoblarni yo-zib olish	22 %	Oxirgi bo‘limlarning tezligi	25 %	To‘g‘ri til ishlatish	15 %
12	Tinglashni qiyinlashtiruvchi omillar	E’tiborni jamlay olmaslik	22 %	Vaqtni samarali boshqarish	18 %	Lug‘at boyligining kamligi	25 %	Grammatikani tushunishdagi muammo	15 %	Past motivatsya	20 %
13	Eng qiyin tinglash savollari turi	Jumlani to‘ldirish	18 %	Moslashtirish mashqlari	15 %	Ko‘p tanlovli savollar	22 %	Eslatma to‘ldirish	20 %	Qisqa javobli savollar	25 %

#	Savol	A	%	B	%	C	%	D	%	E	%
14	Tinglash test-larining foy-dalilig‘i	Juda foydali	30 %	Biroz yor-dam beradi	25 %	Neytral	20 %	Unchalik foydali emas	15 %	Umuman foydali emas	10 %
15	Onlayn vosita-larning sama-radorligi	Juda foydali	35 %	Biroz yor-dam beradi	30 %	Neytral	15 %	Unchalik foydali emas	10 %	Umuman foydali emas	10 %

Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar va raqamli resurslardan foydalanish til o‘rganish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi muhim tadqiqot mavzularidan biridir. Ushbu tajriba ikki oy davomida 60 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilib, ularning ikkita guruhga bo‘lingan holda turli metodlar asosida ta’lim olishi kuzatildi. Tajriba-sinov guruhi interaktiv usullar va podkastlardan foydalangan holda o‘qitilgan bo‘lsa, nazorat guruhi an’anaviy dars usullaridan foydalanishda davom etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv yondashuv qo‘llangan guruh talabalarining tinglash va gapirish ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatildi. Ikki oydan keyingi natijalar taqqoslanishi quyidagi jadvalda aks etadi:

Ko‘nikmalar	Boshlang‘ich natija (%)	Tajriba guruhi (%)	O‘sish (%)	Nazorat guruhi (%)	O‘sish (%)
Gapirish aniqligi	50%	75%	+25%	60%	+10%
Talaffuz va ravonlik	45%	72%	+27%	55%	+10%
Grammatik to‘g‘ri-lik	52%	73%	+21%	60%	+8%
So‘z boyligi	48%	78%	+30%	58%	+10%
Tinglab tushunish	55%	80%	+25%	65%	+10%
Umumiy o‘sish	**50%**	**76%**	**+26%**	**60%**	**+10%**

Tajriba guruhida qo‘llanilgan interaktiv o‘qitish metodlari va texnologiyalar qo‘llanilgan guruh bo‘lib, ularning nutq va tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi yuqori bo‘lgan. Bu guruhdagi talabalar nutqni rejalashtirish, nutqni ravon bayon etish va tinglab tushunish mashg‘ulotlarida ko‘proq muvaffaqiyatga erishishdi. Nazorat guruhida asosan urg‘u qaratilgan an’anaviy o‘qitish usullari asosida ta’lim olgan guruh bo‘lib, ularning natijalari, ayniqsa, nutqni tayyorlash va tinglab tushunish mashg‘ulotlarida qiyinchiliklarga duch keldi. Shuningdek, ularning eshitish va nutqni o‘z vaqtida to‘g‘ri ifodalashdagi ishonchi pastroq bo‘ldi. Ushbu mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan dars jarayonlarini tashkil etishdan samarali foydalanish tajriba-sinov guruhi bilan yo‘lga qo‘yildi. Ushbu usulda til o‘qitishni tashkil etishning samaradorligi qator tajribalar orqali ham sinovdan o‘tgan, ularda natijalar aniq ko‘rsatkichlarda tasdig‘ini topgan: “…o‘qituvchilar va talabalar innovatsion yondashuvlarning ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasini yuqori baholashdi. O‘qituvchilarning 78% innovatsion metodlarning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda ijobiy rol o‘ynayotganini ta’kidladi”.[1] Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘qitish metodlari talabalar nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lib, ularning ishonchini va muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Bunga misol tariqasida quyidagi ilmiy tadqiqot ishining amaliy natijasini ham olishimiz mumkin: “R.Ellis (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘yinlar va interaktiv faoliyatlar til o‘rganishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu metod o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga, stressni kamaytirishga va tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi”.[2]

Munozara (Discussion). So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning gapirish va tinglash ko‘nikmalarida turli muammolar mavjud. Gapirishda eng katta qiyinchilik lug‘at boyligini kengaytirish (25%) va grammatikani to‘g‘ri qo‘llash (22%) bilan bog‘liq bo‘lsa, talaffuz va tovushlarni to‘g‘ri aytish ham muhim muammo sifatida ko‘rsatilgan (20%). Talabalar nutqni rejalashtirishga turlicha yondashishadi: 30% ba’zida rejalashtirsa, 25% esa tez-tez rejalashtiradi. Eng katta xavotir fikrlarni aniq ifodalash (30%)

[1] Umurzakova, A. (2024). Zamonaviy ta’limda pedagogika va chet tillarini o‘qitishning innovatsion metodlari. “Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar ii” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(1), 598 –601. Retrieved from https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/315.

[2] E.T.Jurayev. (2024). Chet tilini o‘qitishda jahon tajribasiga asoslangan innovatsion yondashuvlar. “Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, **1**(12), 179–182. https://doi.org/10.5281/zenodo.14542713

va grammatik xatolar qilish (20%) bilan bog‘liq. Ko‘pchilik (30%) o‘qituvchi fikr-mulohazasini muhim deb bilsa-da, 20% teng ulushdagi talabalar tengdosh baholash va onlayn materiallardan foydalanishni foydali deb hisoblaydi. Tinglash bo‘yicha asosiy muammolar orasida trekning oxirgi qismi juda tez bo‘lishi (25%) va mazmunni aniq bayon qilish (18%) yetakchi o‘rinda. E’tiborni jamlay olmaslik (22%) va lug‘at boyligining kamligi (25%) tinglash qiyinchiliklarining asosiy sabablaridan biri bo‘lib, talabalar eng ko‘p muntazam mashqlar qilish (25%) va turli lahjalarni tinglash (20%) orqali tinglash qobiliyatini oshirishni foydali deb hisoblashadi. So‘rov natijalari tinglash va gapirishni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida individual yondashuv va samarali metodlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ulardan qo‘llanilganda til o‘rganish jarayonidagi lingvistik va psixologik to‘siqlarni yengish ham osonlashadi. Technology Integration: The use of AI-powered tools, language learning apps (e.g., Duolingo, Babbel), and virtual classrooms allows for personalized, interactive, and accessible learning experiences. Virtual reality (VR) environments simulate real-world interactions, enabling learners to practice conversational skills in immersive contexts.[1]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar va podkastlardan foydalanish talabalar nutqiy ko‘nikmalarini an’anaviy usullarga qaraganda tezroq rivojlantirishga yordam beradi. Tajriba guruhi tinglab tushunish va gapirish bo‘yicha o‘rtacha 25–30% o‘sishga erishgan bo‘lsa, nazorat guruhidagi talabalar natijasi faqat 8–10%ga oshgan. Biz tajriba-sinov guruhlarimiz bilan dars mashg‘ulotlari davomida podkast information texnologiyalardan keng foydalanish orqali talabalarning qator lingvistik kompetensiyalarini sezilarli rivojlantirishga erishdik. Xususan, podkast-informatsion dasturlarni doimiy tinglash va ularga taqlid qilish orqali talabalar o‘zlarining talaffuzdagi xato va kamchiliklarini bartaraf eta oladilar. Ko‘pincha, suhbatlar, intervyular yoki hikoyalarni o‘z ichiga olgan podkast kontenti orqali talabalar tinglash qobiliyatlari ustida ishlashlari va bir vaqtning o‘zida eshitadigan tovushlar, intonatsiya va urg‘uning qanday ishlatilishiga taqlid qilish orqali talaffuzlarini yaxshilashlari mumkin[2]. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar darsxonada real til muhitini yaratishga ham ko‘maklashadi. Exposure to Authentic Language Input: Podcasts provide students with authentic and real-world language input, exposing them to a variety of accents, speech patterns, and vocabulary usage. For example, podcasts like “TED Talks” or “Radio Lab” offer engaging and intellectually stimulating content delivered by native speakers.[3]

Xulosa. So‘rovnoma natijalari talabalarning gapirish va tinglash ko‘nikmalarida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Gapirishda eng katta qiyinchiliklar lug‘at boyligini kengaytirish (25%) va grammatikani to‘g‘ri qo‘llash (22%) bilan bog‘liq. Talabalar nutqni rejalashtirishda turlicha yondashadilar, fikrlarni aniq ifodalash va grammatik xatolar qilish esa eng katta xavotirlar sifatida ko‘riladi. Tinglashdagi muammolar orasida mazmunni aniq bayon qilish (18%) va treklarning tezligi (25%) muhim o‘rin tutadi. Talabalar muntazam mashqlar qilish va turli autentik audiolarni tinglash orqali tinglash qobiliyatlarini oshirishni foydali deb hisoblaydilar. Tekshirilgan interaktiv metodlar va podkastlar talabalar nutqiy ko‘nikmalarini an’anaviy usullarga qaraganda tezroq rivojlantirishga yordam beradi. Tajriba guruhi 25–30% o‘sishga erishgan bo‘lsa, nazorat guruhi faqat 8–10% natijaga erishgan. Podkastlar, ayniqsa, talaffuzdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi va talabalarni real til muhitiga taqdim etadi, bu esa o‘rganishni yanada samarali qiladi. Shu asosda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida individual yondashuvlar va samarali metodlarni qo‘llash zarurligi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). C.A.Ummatkulova (2024). The development of cultural awareness among students in philological higher education establishments through podcasts. TAMADDUN NURI 1 (1), p. 47–50.

(2). E.T.Jurayev (2024). Chet tilini o‘qitishda jahon tajribasiga asoslangan innovatsion yondashuvlar . “Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(12), p. 179–182. https://doi.org/10.5281/zenodo.14542713

[1] Toshtemirova Zebiniso Farhodjon kizi, & Rakhmatov Islombek Quldosh o‘g‘li. (2024). Innovate approach and world experience in foreign languge teaching. “Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(12), 220–225. https://doi.org/10.5281/zenodo.14542812

[2] Maxmudova, M., & Ummatkulova, C. (2024). Til o‘qitishda podkastlar orqali talabalarning to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 271–276. https://doi.org/10.2024/tmbye104

[3] Ummatkulova Charos, (2023). Advantages of integrating podcasts in the english language classroom. American Journal of Philological Sciences, 3(12), p. 37–44. https://doi.org/10.37547/ajps/Volume03Issue12-07

(3). Maxmudova, M., & Ummatkulova, C. (2024). Til o‘qitishda podkastlar orqali talabalarning to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, p. 271–276. https://doi.org/10.2024/tmbye104

(4). Toshtemirova Zebiniso Farhodjon kizi, & Rakhmatov Islombek Quldosh o‘g‘li. (2024). Innovate approach and world experience in foreign languge teaching. "Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(12), p. 220–225. https://doi.org/10.5281/zenodo.14542812

(5). Ummatkulova Charos, (2023). Advantages of integrating podcasts in the english language classroom. American Journal of Philological Sciences, 3(12), p. 37–44. https://doi.org/10.37547/ajps/Volume03Issue 12-07

(6). Umurzakova, A. (2024). Zamonaviy ta'limda pedagogika va chet tillarini o‘qitishning innovatsion metodlari. "Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(1), p. 598–601. Retrieved from https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/315.

(7). Yeh, Hui-Chin & Chang, Wei-yu & Chen, H. & Heng, L. (2021). Effects of podcast-making on college students' English speaking skills in higher education. Educational Technology Research and Development. 69.10. 1007/s11423-021-10026-3.

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

TALABALARDA XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari o‘tkazilgan tadqiqotning eksperimental usulida natijalar, ta'lim samaradorligi batafsil, ketma-ket izchil bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, ta'lim, tarbiya, jarayon, innovatsiya, texnologiya, xalq hunarmandchiligi, ijtimoiy, kompetensiya, pedagogik, shart-sharoit, eksperimental, tadqiqot, natija.*

Эсанова Сарвиноз Уктамовна (преподаватель института предпринимательства и педагогики Денова; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ НАРОДНОГО РЕМЕСЛА

Аннотация. *В статье подробно, последовательно и содержательно изложены результаты и педагогическая эффективность проведенного экспериментального исследования психолого-педагогических условий развития социальных компетенций учащихся в сфере народных промыслов.*

Ключевые слова: *студент, образование, воспитание, процесс, инновация, технология, народные промыслы, социальный, компетентность, педагогический, условия, экспериментальный, исследование, результат.*

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denova Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Teacher at the Department of Preschool Education; e-mail: salohiddin8380@gmail.com)

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL COMPETENCIES IN FOLK HANDICRAFTS

Annotation. *The article describes in detail, sequentially and consistently, the results and educational effectiveness of the experimental research conducted on the psychological and pedagogical conditions for the development of students' social competencies in folk crafts.*

Keywords: *student, education, upbringing, process, innovation, technology, folk crafts, social, competence, pedagogical, conditions, experimental, research, result.*

Kirish. Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi nafaqat milliy merosning ajralmas qismi, balki yosh avlodni tarbiyalash va ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy hunarmandchilik qadriyatlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki talabalarning ijodiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ta'lim berish jarayoni talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kompetensiyalar jumlasiga jamoa bilan ishlash, madaniy merosni qadrlash, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va kasbiy rivojlanish kabi ko‘nikmalar kiradi. Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi orqali talabalar ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi.